



AMBIGUITY, VAGUENESS VA NEUTRALITY TUSHUNCHALARINING ZAMONAVIY INGLIZ TILI TADQIQOTLARIDAGI O‘RNI

Alisher Nabiyeu

Samarqand davlat chet tillar instituti
Ingliz filologiyasi kafedrasida mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy ingliz tili tadqiqotlarida muhim o‘rin tutuvchi ambiguity (noaniqlik), vagueness (noma’lumlik) va neutrality (neytralitet) tushunchalari leksik, sintaktik va pragmatik darajalarda tahlil qilinadi. Til sistemasining tabiiy jihati bo‘lgan ko‘p ma’nolilik, kontekstdagi o‘zgaruvchanlik va nutqiy sharoitlar ushbu kategoriyalarning shakllanishiga asos bo‘lishi ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: ambiguity, vagueness, neutrality, sintaktik noaniqlik, semantik noma’lumlik, polisemantik birliklar, pragmatik talqin, ingliz tili.

KIRISH.

Til inson tafakkurining eng muhim mahsuli sifatida doimo o‘zgarishda, rivojlanishda va kontekstga moslashishda davom etadi. Shu sababli tabiiy tillarda ma’no barqarorligi, mazmunning aniq chegaralanganligi yoki talqinning bir xil bo‘lishi deyarli mumkin emas. Zamonaviy lingvistika aynan mana shu jarayon tilda noaniqlik, noma’lumlik va neytralitetning paydo bo‘lishini chuqur tahlil qilishga katta e’tibor qaratmoqda. Ingliz tili misolida bu hodisalar alohida ahamiyatga ega, chunki ingliz tili strukturasi, uning sintaktik moslashuvchanligi va leksik boyligi tabiatan turlicha talqinlarga keng imkon yaratadi.

Tilshunoslikda ambiguity (noaniqlik), vagueness (noma’lumlik) va neutrality (neytralitet) kabi tushunchalar mazmuni o‘zaro yaqin tuyulsa-da, aslida ular til tizimida turli funksional yuklamaga ega. Bu uch fenomen tildagi ko‘p ma’nolilik, sintaktik moslashuvchanlik, konnotativ qatlam, pragmatik kontekst va kognitiv qabul kabi mezonlar bilan bevosita bog‘liq. Ayniqsa, ingliz tilidagi polisemantik birliklar, sintaktik strukturalarning soddaligi, predloglar tizimining moslashuvchanligi va gap tarkibining ko‘chuvchanligi ushbu kategoriyalarning namoyon bo‘lishi uchun qulay lingvistik muhit yaratadi. Shu sababli ingliz tilida noaniqlikni o‘rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyat kasb etadi.

Ambiguity, ya’ni noaniqlik, tilning tabiiy xususiyatlaridan biri sifatida turli darajalarda uchraydi: leksik, morfologik, sintaktik, pragmatik va hatto diskursiv darajalarda. Bu kategoriya polisemantik so‘zlardan tortib, gapdagi so‘z tartibining o‘zgarishi, predloglarning ko‘p ma’noiligi, referenting noaniqligi yoki nutqiy kontekstning yetarli emasligi tufayli kelib chiqishi mumkin. Ingliz tilida polisemantik birliklar ko‘pligi tufayli bir so‘z ko‘pincha bir nechta ma’noga ega, shu bois kontekstning roliga alohida e’tibor talab etiladi. Masalan, *bank*, *light*, *match*, *spring* kabi so‘zlar turli kontekstlarda turli ma’noni ifodalaydi. Bu esa tahlilda semantik noaniqlikni yuzaga chiqaradi.

Tilshunos I. V. Arnold, J. Katz, V. Zvitskiy, G. Leech (1983), Ch. Fillmore kabi olimlar til tizimidagi noaniqlikni turli nuqtai nazardan tahlil qilgan. Ularning yondashuvlarida umumiy jihat shundaki, ambiguity inson tilining tabiati va kognitiv mexanizmlari bilan bog‘langan murakkab hodisa sifatida qaraladi [1]. J. Katz strukturaviy ambiguity haqida so‘zlar ekan, gapning yuzaki shakli bir xil bo‘lgani holda uning chuqur sintaktik tuzilishi har xil bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Uning yaqin misoli sifatida “*She saw the man with a telescope*” gapining ikki xil talqin qilinishi tilning chuqur sintaktik mexanizmlarini anglash zarurligini ko‘rsatadi. Bu hodisa J. Katz uchun “latent ambiguity” ya’ni yashirin noaniqlik sifatida baholanadi [2].

Boshqa tomondan, vagueness noma’lumlik kategoriyasi tilning strukturaviy belgisidan ko‘ra, uning semantik chegaralarining mavhumligi bilan bog‘liq [3]. “*Tall*”, “*young*”, “*expensive*”, “*soon*”, “*cold*” kabi



sifatlovchi yoki belgilovchi birliklarda noaniq chegara mavjud bo‘lib, ular ma‘lum bir standart yoki aniq mezonga tayanmaydi. Ogden va Richards bu hodisani “*ma’no uchburchagi*” orqali izohlaydi: so‘zning referenti (dunyodagi obyekt), uning ma‘nosi va inson ongidagi tasavvuri o‘rtasidagi nomutanosiblik noma‘lumlikni yuzaga keltiradi [4]. Masalan, “*He is tall*” gapidagi “*tall*”ning real o‘lchovi 170 sm, 180 sm yoki 190 sm ekanligi noaniq. Bu baholash individual qabul, madaniy sharoit, ijtimoiy qarash va hatto biologik omillarga bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shu sababli vagueness ko‘proq semantik elastiklik bilan xarakterlanadi.

Uchinchi muhim kategoriya neutrality, ya‘ni neytralitet tilning konnotativ bo‘yoqdan xoli bo‘lgan, hissiy yuklamaga ega bo‘lmagan birliklarining qo‘llanishi bilan bog‘liq. G.Leechning denotativ ma‘no haqidagi qarashlarida aynan neytral birliklar ilmiy matnlarda, ma‘lum faktni bildiruvchi gaplarda yoki standart ta‘riflarda ko‘proq qo‘llanishi ta‘kidlanadi [5]. Masalan, “*elderly*” va “*old*” so‘zlari bir xil obyekt yosh bo‘yicha katta odamni anglatadi, ammo ulardan biri salbiy konnotatsiyaga, ikkinchisi esa neytral mazmunga yaqin. Bu jarayon tilning pragmatik qatlami bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, so‘zlovchining maqsadi, nutq vaziyati, adresat bilan bo‘lgan ijtimoiy masofa kabi omillarni hisobga oladi.

Shu o‘rinda shuni ham ta‘kidlash kerakki, ambiguity, vagueness va neutrality tildagi bir-biridan mustaqil hodisalar bo‘lsa-da, ular ko‘pincha nutq jarayonida bir-biriga yaqinlashishi va hatto aralashib ketishi mumkin [6]. Masalan, biror so‘zning konnotativ neytral bo‘lishi uning semantik nuqtai nazardan noma‘lum bo‘lishini inkor etmaydi. Yoki tarkibida noaniqlik mavjud bo‘lgan gap ham neytral pragmatik tusga ega bo‘lishi mumkin. Shu bois bu kategoriyalarni farqlashda lingvistlar odatda uch mezonni inobatga olishadi: strukturaviy (syntax), semantik (lexical/semantic) va pragmatik (pragmatics).

Ingliz tilining sintaktik moslashuvchanligi strukturaviy ambiguityning eng keng tarqalgan manbalaridan biridir. Prepozitsion birikmalarning ko‘p ma‘noligi, atributiv guruhlarining ketma-ket kelishi, qo‘shimcha gaplarning (clause) o‘rinlashuvi, aniqlovchilarning (modifier) o‘qilishi sintaktik noaniqliklarni yuzaga chiqaradi. Masalan, “*old men and women*” birikmasi “keksalar - erkaklar va ayollar” deb talqin qilinishi mumkin bo‘lsa, ayrim hollarda “keksalar erkaklar va yosh ayollar” deb ham tushunilishi ehtimoldan xoli emas. Bu hodisa atributiv bog‘lanishning aniqlanmaganligi bilan bog‘liq.

Nutqiy aktlarda (speech acts) ham ambiguity muhim rol o‘ynaydi. Masalan:

Why don’t you ask for help?

Bu gap muloqot vaziyatiga qarab ikki xil mazmunga ega bo‘lishi mumkin:

Maslahat berish “*Senga yordam so‘rash kerak*”

Shikoyat yoki tanbeh “*Nega yordam so‘ramayapsan?*”

Bu holatda strukturaviy emas, balki pragmatik ambiguity namoyon bo‘ladi.

Can you pass the salt? bu jumlada literal ma‘no (qodirmisan?) bilan illokutiv ma‘no (tuzni uzat) o‘rtasidagi tafovut pragmatik noaniqlikning klassik ko‘rinishidir.

Vagueness esa ko‘pincha baholovchi birliklar, modallik fe‘llari, intensifikatorlar, umumiy tushunchalar orqali yuzaga keladi: “*soon*”, “*rarely*”, “*often*”, “*kind of*”, “*maybe*”, “*somewhat*” kabi birliklar nutqni aniqlikdan yiroqlashtiradi, ammo bu til komunikativ jarayonini qiyinlashtirmaydi, aksincha, ba‘zan uni yumshatadi, moslashtiradi yoki noqulay vaziyatlardan chiqishda yordam beradi. Shuning uchun vagueness ko‘pincha nutq etiketi bilan uyg‘unlashadi.

Neytralitet esa tildagi stilistik ikki qutb ekspressivlik va konnotativlikka qarshi qo‘yilgan betaraflilikning ifodasidir. Ingliz tilining rasmiy, texnik, ilmiy ko‘rinishida aynan neytral birliklar ustun bo‘lib, bu mazkur uslublarning umumiy normativ xususiyatini belgilaydi. Neytralitetning mavjudligi tilni idroklashda obyektivlikni ta‘minlab, noaniqlikning kamayishiga ham yordam beradi.

Shunday qilib, ambiguity, vagueness va neutrality tushunchalari ingliz tilining semantik tuzilishida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Tilda ma‘no qanday shakllanishi, qanday o‘zgarishi va qanday talqin qilinishi masalalari ushbu kategoriyalarni chuqur tahlil qilish orqali yanada ravshan bo‘ladi. Shu bilan birga, zamonaviy lingvistika bu fenomenlarni faqat nazariy masala sifatida emas, amaliy kommunikatsiyaning ajralmas tarkibiy qismi sifatida ham ko‘rib chiqadi. Mazkur maqolada ushbu uch fenomen farqlari, ularning lingvistik asoslari va ingliz tilidagi ko‘rinishlari ilmiy manbalar, misollar va nazariy yondashuvlar asosida tahlil qilinadi.



Xulosa. Ambiguity, vagueness va neutrality ingliz tili semantikasi va pragmatikasining eng murakkab, shu bilan birga eng tabiiy kategoriyalaridan sanaladi. Ambiguity tildagi ko‘p ma’nodlilik va strukturalarning o‘ziga xosligi bilan bog‘liq bo‘lsa, vagueness ma’noning noaniq chegaralari, subyektiv qabul va madaniy kontekst bilan chambarchas aloqadordir. Neutrality esa tildagi konnotativ bo‘yoqning yo‘qligiga asoslanadi va ko‘proq ilmiy-uslubiy matnlarda uchraydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Arnold I.V. Stylistics of Modern English. Moscow: Vysshaya Shkola. 1973.
2. Katz J. Semantic Theory. New York: Harper & Row. 1972.
3. Zvitskiy V. Syntactic Ambiguity in English. Leningrad University Press. 1982.
4. Ogden C.K., Richards, I.A. The Meaning of Meaning. London: Routledge. 1923.
5. Leech G. Principles of Pragmatics. London: Longman. 1983.
6. Cruse D. A. Meaning in Language: An Introduction to Semantics and Pragmatics. Oxford University Press. 2000.
7. Tukhtasinov, I., & Otabek, Y. (2022). Teaching a Foreign Language According to Age Groups. Journal of Higher Education Theory and Practice, 22(2), 238-246.
8. Yusupov, O., Abdazimov, A., Muradov, U., Kuchkeldiyeva, U., & Mirkasimova, M. (2021). Improving writing skills using communicative competence. International Journal of World Languages, 1(2).
9. Юсупов, О. (2022). Хорижий тилларни ўқитишда таржиманинг аҳамияти. Анализ актуальных проблем, инноваций, традиций, решений и художественной литературы в преподавании иностранных языков, 1(01), 9-11.
10. Yusupov, O. Y. (2020). ETYMOLOGICAL AND PRO-ETYMOLOGICAL DOUBLETS IN ENGLISH. Theoretical & Applied Science, (2), 417-420.
11. Yusupov, O. (2019). Functional-Semantic Features Of Lexical Doublets In English. Philology Matters, 3, 98-104.
12. Yusupov, O. (2021). The russification legacy of historical monuments of Uzbekistan. Linguistics and Culture Review.
13. Yusupov, O. (2020). Lexical doublets in English and Uzbek linguistics. Journal of Critical Reviews, 7(5), 466-468.
14. Yusupov, O. (2016). Testing as an effective tool of an English language classroom. Рецензенты: Ирина Валентиновна Арябкина—доктор педагогических наук, 233.
15. Юсупов, О. Я. (2020). Ўзбек тилига араб ва форс тилларидан ўзлашган лексик дублетлар тахлили. Хорижий филология. No2.